

O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

«Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» kafedrası

Tabiatshunoslik va geografiya fakul`tetı

O`QITISH MeTODLARI HAQIDA TUShUNChA

maʼruzıciđađı

K U R S I S h I

Qabul qilgan:

Atabaeva G.

Topshirgan:

Xakimniyazova S 3a-geo

NOKIS-2015

Tema: O`QITISH MeTODLARI HAQIDA TUShUNChA

ReJASI:

Kirish

1.O`qitish metodlarini sinflashtirish

2.Geografiya darslarida o`kitish metodlarini tanlash

3. Geografiya ta`limda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

Geografiya darslarida o`kitish metodlarini tanlash o`ta muxim vazifalardan biri hisoblanadi. Agar tegishli metod noto`g`ri tanlangan bo`lsa o`kituvchi va o`kuvchining berganlikdagi faoliyati samarasiz bo`lib koladi. Shuning uchun o`kitish metodlarini tanlash ma`lum bir tamoillar asosida olib borilmog`i lozim. Ular quyidagilardan iborat.

«Tanlangan metod» o`tiladigan mavzuning mazmuniga mos bo`lishi lozim. Bu metodning samaradorligini birinchi sharti xisoblanadi. Ko`p xollarda bir xil mazmundagi dars o`tish uchun yagona bitta metodni ko`p xollarda samara bermaydi. Shuning uchun o`kituvchilarni va o`kuvchilarni faoliyatiga mos keladigan metodlarni tanlash lozim. Bunda o`kuvchilarni bilish imkoniyatlari, ular amalga oshiradigan faoliyatning murakkablik jamoasi, vakt omili va geografiya kabinetida zarur bilim mablag`larining bor yo`kligi metod turini aniklab beradi.

O`kitish metodini tanlaganda o`kuvchilarni bilish kobiliyatlarini xisobga olish tamoyili, bunda quyidagilarga e`tibor beriladi:

o`kuv mavzusining murakkabligiga;

sinf nazariy bilimlar xajmiga;

sinf o`kuvchilari darajasiga;

o`kuvchilarning mustakil ishlarni bajara olish kobiliyatiga;

Geografiya bilimlarni xususiyatlarini xisobga olish tamoyili. Geografiya bilimlar bilishning xususiyatiga karab quyidagi turlarga bo`linadi:

-geografik vokea va xodisalarni tashki kurinishi hakidagi bilimlar. Mazkur bilimlar o`kuvchilarda o`rganilayotgan vokealar hakida tasavvurlarni shakillantiradi. Masalan, tog`lar o`rmonlar, gullar, ko`llar, daryolar, xaritalar va x.k.;

1.O`qitish metodlarini sinflashtirish

O`qitish metodlari juda ko`p belgilar asosida sinflashtirilgan. Shuning uchun o`qitish metodlarini sinflashtirishni qator variantlari mavjud.

Daslab o`qitish metodlarni sinflashtirish nemis olimi Oberlender tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur sinflashtirish XX- asrning 30-yillarigacha foydalanildi.

Oberlender geografiya o`qitish metodlarni qo`yidagiga sinflashtirgan:

- analitik metodlar.Avval er bir butun ob`ekt sifatida o`rganiladi, so`ngra uning qismlari o`rganiladi. Masalan, «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasida avval urning umumiy xususiyatlari va qnunyatlari ochib beriladi. So`ngra alohida materik va okeanlarning tabiiy geografik xususiyatlari o`rganiladi:
- sintetik metodlar. Avval alohida joylar o`rganiladi so`ngra er bir butun o`rganiladi;
- konstruktiv metodlar. Bunda o`kuvchi xarita chizish davomida er yuzasini rel`efini hakida bilimlarni egallaydi;
- bog`lovchi metodlar. Bunday metodlar bilan ishlanganda o`rganilayotgan xodisalar o`rtasidagi aloka va og`likliklarni o`rganishga katta e`tibor beriladi; Masalan, balandga chikkan sari harorat va bosimni pasayishi va x.k.
- guruhlashtiruvchi metodlar. Bir xil geografik xodisalarni kiyoslashga asoslangan. Masalan, daryolarning to`yinishi, yog`inlarni taksimlanishi, sanoatni ayrim tarmoklarini joylanishi va h.k.:

Keyinchalik Ushbu metodlar boshka olimlar tomonidan takomillashtiria boshlanadi. D.D. Semenov, E.Yu. Petri, A.S. Sokolov, V.P. Budanov, S.P. Arjanov tomonidan kayta ishlab chikildi. S.P. Arjanov geografiya o`qitish usullariini kuyidagi guruhga bo`ladi: analitik, sintetik, kontsertrik,assotsiyalashtiruvchi, guruhlashtiruvchi, takkoslash, tajriba, o`zaro aloka, evristikE, degmatik, sintetik-genetik, tajriba- evristik.

Xalk komissariatining 1934 yil 15 may «Geografiyani boshlang`ich va o`rta maktablarida o`qitish hakida » karoridan so`ng mavjud o`qitish metodlari kattik tankid ostiga olinadi.

«O`kitish metodi» deganda tushunchani yangi mazmuni va mohiyati ishlab chikildi. V.G. Erdeli tomonidan geografiya o`kitish metodlarni ikki guruhga bo`lish tavsiya etiladi:

A) barcha fanlarda ko`llaniladigan metodlar;

B) fakat geografiya fanida ko`llaniladigan metodlar (masalan, xarita bilan ishlash metodlari).

A.A Polovingin 1938 yili «Tabiiy geografiya metodikasi» nomli darsliklarda kuyidagi metodlarni ajratadi: og`zaki bayon xarita diapozitiv; plastilin; daslik; va globus bilan ishlash; ekskursiya va tajriba metodlari. V.P. Budanov 1939 yil «Tabiiy geografiyani o`kitish metodikasi » nomli kitobida o`kitish metodikasiga kuyidagi ta`rif beradi: «O`kuvchilarni yangi bilim va ko`nikmalarni o`zlashtirishni o`kituvchi tomonidan boshkarishishi». V.P. Budanov kuyidagi metodlarni ajratadi: jonli so`z; Darslik bilan ishlash, gluu va xarita bilan ishlash, ko`rgazmali, kuzatish va tajriba. XX asrning 50–yillaridan so`ng Ushbu muammo N.N. Baranskiy, A.V.Darineskiy, V.A. Jugkevich, V.A.Korinskaya O. Mo`minovlar tomonidan rivojlantirildi.

Shuni ta`kidlab aytish joizki, har doim turli davrlarda o`kitish metodlarni sinflashtirish bitta yagona koida asosida olib borildi, ya`ni bilish manbalariga asosan. Shuning uchun hozirgi davrda geografik o`kitish metoddikasi metodlarni bilish manbalariga ko`ra sinflashtirish keng tarkalgan. Suhbat, ma`ruza, xaritalar bilan ishlash, kuzatish, tajriba, Darslik bilan ishlash, statistik ma`lumotlar bilash ishlash metodlari umumta`lim maktablarida u yoki bu shaklda keng ko`llanilamokda. Oxirgi davrlarda o`kitish metodlarni ishlab chikish kuchayib ketdi. Geografiya o`kitish metodlarini bilish manbalariga ko`ra sinflashtirish tankid ostiga Olina boshlandi, chunki Ushbu metodlar asosan tashki belgilarga karab, o`kuvchilarni o`kuv faoliyatini hisobga olgan holda sinflashtirilgan.

Endi geografiya o`kitish metodikalarini metodologik asosini ko`rib chikamiz. Falsafa fanida «metod» tushunchasiga ko`yidagiga ta`rif beriladi: «Borlikni amaliy va nazariy o`rganish». Ushbu ta`rif asosan ilmiy va o`kuv tomonlari turlicha, shuning uchun Ushbu ta`rifni to`g`ridan to`g`ri o`kuv

jarayoniga ko'llab bo'lmaydi, chunki ularni maqsadlari va faoliyat shakllari turlicha. Ammo ularning umumiy tomonlari ham bor. Ularning eng muhim umumiy tomonlari ham bor. Ularning eng umumiy tomoni fan ham, o'qitish ham bilish jarayoni hisoblanadi. Ilmiy bilishda ob'ektiv bo'lib borlik, sub'ekt bo'lib tatkikotchi (olim) hisoblanadi. O'qitish jarayonida ob'ekt bo'lib o'quv predmetining mazmuni, sub'ekt bo'lib o'quvchilar hisoblanadi. Ikala sharoitda ham alohida o'rinni sub'ektning faoliyati egallaydi. Manna shu narsa o'qitish metodini falsafiy ta'rifini o'quv jarayoniga kullash imkon beradi.

Endi o'qituvchi bilan o'quvchining maqsadlarini aniklab olishimiz lozim.

O'qituvchining o'qitish maqsadlari ko'yidagilardan iborat:

- o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarni egallashni ta'minlash;
- o'quvchilarni ongini rivojlanishni ta'minlash;
- egallangan bilim va ko'nikmalar asosida o'quvchilarni shakllanishini ta'minlash, ya'ni ularni tarbiyalash.

O'qitish (o'quvchi) ning metodi bitta maqsadga yo'naltirilgan, ya'ni bilim va ko'nikmalarni egallash. Demak, o'quvchilarning maqsadi, o'quvchilarning o'qitish metodi o'qitish metodining asosini tashkil kiladi. O'qituvchi o'quv jarayonini boshkaribgina kolmasdan balki mana shu jarayonning ichida bo'lmog'i lozim, ya'niy kuvchilarni bilim va ko'nikmalarini egallashida bir paytning o'zida boshkaruvchi ham yordam beruvchibo'lishi zarur. Buning barchasi o'qitish metodlariga ko'yidagicha ta'rif berishga imkon beradi: «O'qituvchlar tomonidan o'quv mazmunini o'zlashtirishga imkon beradigin o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatidir».

Metod doimo o'quv mazmuniga mos kelishi lozim. Maktab geografiyasida esa geografiya o'qitish metodlari so'zsiz geografiya fanini bilish metodlariga mos kelishi kerak o'qituvchi va o'quvchining faoliyatiga kuyidagilar kiradi: kartografik ma'lumotlar va ko'llanmalar bilan ishlash usullari; statistik ma'lumotlar bilan ishlash; turli xil chizmalar bilan ishlash; iktisodiy xisob kitoblar. Demak, o'qituvchi va o'quvchining faoliyati o'qitish metodini tashkil kilar ekan.

Hozirgi vaktida geografiya ta'limida o'qitish metodlarini ko'yidagicha sinflashtirish keng tarkalgan:

I. Bilim olishga asosiy manbalariga ko'ra

1. O'qituvchining og'zaki usullari;
2. Kartografik kullanmalar;
3. Ko'rsatmali ko'llanmalar bilan ishlash;
4. Kursatish va tajriba metodlari;
5. Statistik ma'lumotlar bilan ishlash;
6. Darslik va kushimcha adabiyotlar bilan ishlash;
7. Amaliy metodlar
8. Zamonaviy axbarot texnologiyalaridan foydalanish
9. Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish

II. Didaktik maksadlariga ko'ra

1. Yangi bilimlarni o'rganish
2. Bilimlarni mustaxkamlash
3. Bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish metodlari

III. xulosa chikarish metodlariga ko'ra

1. Analitik
2. Sintetik
3. Induktiv
4. Deduktiv

IV. Fikrlash faoliyati va bilim olish faolligi xususiyati bo'yicha

1. Izoxli ko'rgazmali metod
2. Reprodukativ yoki olingan bilimlarni kayta tiklash metodi
3. Muammoli bayon metodi
4. Muammoli ta'lim metodi
5. Qisman izlanuvchan metodi
6. Izlanuvchan metod

S.T.Shapova lenko barcha usullarni uch guruxga bo'ladi:

- 1.Og`zaki metodlar
- 2.ko`rgazmali metodlar
- 3.Amaliy metodlar

Bundan tashkari geologiyadagi usullarni yana ikki guruxga bo`lishimiz mumkin:

- 1.Yangi bilim olish metodlari
- 2.Olingan bilimlarni kayta tiklash metodlari

2.Geografiya darslarida o`kitish metodlarini tanlash

Geografiya darslarida o`kitish metodlarini tanlash o`ta muxim vazifalardan biri hisoblanadi. Agar tegishli metod noto`g`ri tanlangan bo`lsa o`kituvchi va o`kuvchining berganlikdagi faoliyati samarasiz bo`lib koladi. Shuning uchun o`kitish metodlarini tanlash ma`lum bir tamoillar asosida olib borilmog`i lozim. Ular quyidagilardan iborat.

«Tanlangan metod» o`tiladigan mavzuning mazmuniga mos bo`lishi lozim. Bu metodning samaradorligini birinchi sharti xisoblanadi. Ko`p xollarda bir xil mazmundagi dars o`tish uchun yagona bitta metodni ko`p xollarda samara bermaydi. Shuning uchun o`kituvchilarni va o`kuvchilarni faoliyatiga mos keladigan metodlarni tanlash lozim. Bunda o`kuvchilarni bilish imkoniyatlari, ular amalga oshiradigan faoliyatning murakkablik jamoasi, vakt omili va geografiya kabinetida zarur bilim mablag`larining bor yo`kligi metod turini aniklab beradi.

O`kitish metodini tanlaganda o`kuvchilarni bilish kobiliyatlarini xisobga olish tamoyili, bunda quyidagilarga e`tibor beriladi:

- o`kuv mavzusining murakkabligiga;
- sinf nazariy bilimlar xajmiga;
- sinf o`kuvchilari darajasiga;
- o`kuvchilarning mustakil ishlarni bajara olish kobiliyatiga;

Geografiya bilimlarni xususiyatlarini xisobga olish tamoyili. Geografiya bilimlar bilishning xususiyatiga karab kuyidagi turlarga bo`linadi:

-geografik vokea va xodisalarni tashki kurinishi hakidagi bilimlar. Mazkur bilimlar o`kuvchilarda o`rganilayotgan vokealar hakida tasavvurlarni shakillantiradi. Masalan, tog`lar o`rmonlar, gullar, ko`llar, daryolar, xaritalar va x.k.;

-geografiya vokea va xodisalarni fazoda joylashishi hakidagi bilimlar tabiat zonalari, iklim mintakalari, davlatlar, shaharlar ma`muriy `irliklarini joylashuvi;

-geografiya vokea va xodisalarni xossalari hakidagi bilimlar. Bunday bilimlarga tuprokning xosildorligi, namgarchilik, bug`lanish, , intensiv va ekstensiv xo`jalik, tog` jinslarining kattikligi, suvning sho`rligi va xarorati va x.k.

-geografik jarayonlar xakidagi bilimlar. Mazkur bilimlarga shamol, yog`inlar, suv erroziyasi, surilmalar, zil-zilalar, ishlab chikarish jarayonlari, migratsiya, urbanizatsiya, vulkanlar va boshka jarayonlar kiradi;

-geografik borlik va xodisalarining tarkibi xakida bilimlar. Masalan, tog` jinslarining tarkibi, yog`inlarning tarkibi, axolining milliy tarkibi va x.

-geograf borlik va xodisalarining tuzilishi hakidagi bilimlar. Mazkur bilimlarga er kabinitining tuzilishi, urning ichki tuzilishi, kishlok xo`jaligining tuzilish, kishlok xo`jaligining tuzilish, tuprokning tuzilishi, xalk xo`jaligining tuzilishi, xalk xo`jaligining tuzilishi va x.k.

-geografik vokea va xodisalar xodisalar orasidagi alokalar xakidagi bilimlar, masalan, sabab va okibatlar, davriy, fazoviy, funktsional alokalar.

Mazkur bilimlarning har biri alohida o`kitish usullarini ko`llashni takazo etadi.

Qo`llaniladigan metodlar kuyidagi talabalarga javob berishi lozim:

a)metod tarbiyaviy bo`lishi lozim, ya`ni o`kuvchilarning rivojlanishga, kizikishlariga ta`sir ko`rsatishi lozim;

b) tanlangan metod ilmiy bo`lishi lozim, metod ilmiy jihatdan kanchalik asoslangan bo`lsa, shunchalik ravshan va anik bo`ladi:

v) metod ommabop bo`lishi lozim;

g) metod samarali bo'lmog'i zarur, ya'ni o'quv materiallarini mustahkamlash egallashga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

3. Geografiya ta'limda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

O'zbekiston, Rossiya va boshqa qator MDH davlatlari ta'lim tizimiga XX asrning 90-yillaridan boshlab «Yangi pedagogik texnologiyalar», «Ilg'or pedagogik texnologiyalari», «Maktab texnologiyalar», «Axborot texnologiyalari» va boshqa shunga o'xshash tushunchalar kirib keldi.

XX asrga kelib fan texnikaning yuksak darajada rivojlanish munosabati bilan ta'lim tizimida xam qator muammolar vujudga keldi. Bunday muammolarga avvaldan kafolatlangan natijalarni olishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarni loyihalashtirish va amalga oshirish kiradi.

Shu maqsadda XX asrning 50-70 yillarida AQSh da B.Blum. D.Kratvoll, N.Gronlund, Dj.Kerol, Dj.Blok, A.Anderson va boshqa olimlar tomonidan rejalashtirilgan natijalarni olishni kafolatlaydigan, qayta takrorlanadigan pedagogik tsiklni o'z ichiga olgan texnologiyalar ishlab chiqildi. Mazkur texnologiyalar so'ngra evropada qo'llanila boshlandi. Pedagogik texnologiyalar bo'yicha ilmiy jurnallar nashr qilina boshlandi.

Rossiyada pedagogik texnologiyalar XX asrning 90-yillaridan boshlab tarqala boshladi. Mazkur texnologiyalar soxasida B.I. Bespalko, M.V.Klarin, V.G.Guzeev, T.S.Nazarov. N.D.Nikondova, N.F.Kostenko, V.R.Imakova, G.Il'ni, B.I.Bulin, Sokolova, Yu.G.Molokova, O.episheva, P.K.Seleko va boshqalar ulkan ishlarni amalga oshirishdi. «Shkoln`nye texnologii» jurnali nashr qilina boshladi. Yangi pedagogik texnaologiyalar ta'limning boshqa bosqichlarida (maktabgacha ta'lim, boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus va Oliy ta'lim) qo'llanila boshladi.

O'zbekistonda pedagogik texnologiyalar sohasida 2000 yildan boshlab yirik ilmiy ishlar va o'quv qo'llanmalari nashr qilina boshlandi. Bu sohada B.P.Farberman, N.Saydaxmedov, F.Jumabaev, A.Ochilov, L.Golish, B.Ziyamuxamedov, Sh.Abdullaev, J.O.Tolipova, A.T.G'ofurov va boshqalar katta

ishlarni amalga oshirishdi. Ayniqsa Nizomiy nomidagi Toshkent Pedagogika Universitetining «Axborot texnologiyalari va masofaviy o`qitish markazi» tomonidan bu sohada ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur markaz tomonidan har oyda ta`lim texnologiyalariga bag`ishlangan «Axborotnoma» nashr qilinadi. Mazkur axborotnomada jaxondagi rivojlangan davlatlarni ta`lim texnologiyalari muammolariga bag`ishlangan maqolalar e`lon qilinadi.

Geografiya ta`limida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo`llash va geografik ta`lim texnologiyalarini ishlab chiqish bo`yicha I.V.Dushina, V.T.Dmitreva, A.N.Vorob`ev, O.A.Ushakova, N.V.Novenko, I.I.Barina, O.A.Baxchieva va boshqalar ish olib borishmoqda.

O`zbekistonda geografiyasi ta`limida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo`llash va geografik texnologiyalarni ishlab chiqish bo`yicha ilmiy va metodik ishlar endi boshlanmoqda, ammo bu sohada yirik ko`zga ko`rinadigan ishlar hali qilinganicha yo`q. Pedagogik texnologiyalarni ajralmas qismi bo`lgan test topshiriqlari hamma fanlarda, ayniqsa Oliy o`quv yurtlariga kirish imtihonlarida keng qo`llanila boshlandi. Shuni ham aytib o`tish lozimki, barcha o`quv fanlarida ham test topshiriqlarini tuzish bo`yicha aniq bir metodik qo`llanmalar va ko`rsatmalar ishlanmasdan turib test topshiriqlari ishlab chiqildi va nashr qilindi. Bu esa ayrim chalkashliklarga va testlarni faqat bir yo`nalishda tuzilishiga olib keldi. Testologiya, ya`ni o`kitish maqsadlarini test topshiriqlari orqali ifodalash pedagogik texnologiyalarni oxirgi bosqichlaridan biri hisoblanadi. Demak, O`zbekistonda va boshqa MDH davlatlarida yangi pedagogik texnologiyalarni ma`lum bir bo`g`inlarini qo`llashgancha oldin boshlangan.

O`zbekistonda 1992 yildan boshlab mamlakatimiz Prizedenti I.A.Karimov farmoniga binoan Oliy o`quv yurtlariga qabul pedagogik test sinovlari asosida o`tkaziladigan bo`ldi. Oliy va o`rta maxsus maktab muammolari institutida pedagogik texnologiyalar va ta`lim sifati bo`limi ochildi.

Geografiya ta`limida ko`pincha o`kitish texnologiyalari ilgaritdan qo`llanilib kelinadi, ayrimlari endi qo`llanilmoqda. I.V.Dushina (2004) geografiya ta`limida qo`llaniladigan texnologiyalarni quyidagi turlarga bo`lgan: mantiqiy tayanch

konspektlar texnologiyasi; o`kuv ishlari usullarini shakllantirish texnologiyasi; o`kuvchilarni o`quv faoliyatini shakllantirish texnologiyasi; kommunikativ – aloqa texnologiyasi; o`quvchilarni loyixalar tuzish faoliyati texnologiyasi.

Hozirgi paytda geografiya ta`limida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo`llashni ilmiy-metodik asoslari quyidagi yo`nalishlarda ishlab chiqilishi lozim.

Geografiya ta`limini maqsadlarini aniqlash. Geografiya ta`limining maqsadlari va vazifalari mavjud ta`lim standartlarida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Standartlar bo'yicha har bir geografiya predmeti bo'yicha ta`lim maqsadlari va vazifalari ishlab chiqilgan. Geografiya ta`limining asosiy ko`rsatkichlarini B.Blumning taksonomik birliklari orqali ifodalansa ular aniq bir o`lchamlarga ega bo`lar edi. Mazkur muammo sohasida hozircha geografiya ta`limida sezilarli ishlar olib borilayotgani yo`q.

Geografiya ta`limida quyidagi texnologiyalardan foydalanish mumkin. Kartografik texnologiyalar. Geografiya ta`limining barcha bohqichlarida qadimdan qo`llanib keladi. Kartografik materiallar ko`pincha darsga qo`shimcha ko`rgazma sifatida ishlatiladi. Alohida kartografik texnologiyalar yordamida hozircha dars o`tilmaydi. Kartografik texnologiyalarni qo`llash quyidagi bosqichlardan iborat:

a) ilk, sodda kartografik tushunchalarni shakllantirish bosqichi. Mazkur bosqich umum-ta`lim maktablarida 5-sinfda «Boshlang`ich tabiiy geografiya» kursida, Oliy o`quv yurtlarida esa topografiya va kartografiya kurslarida beriladi. Bunda, xarita, miqiyos (mashstab), shartli belgilar, geografik koordinatalar haqida tushunchalar, ko`nikma va malakalar shakllantiriladi. Mazkur bosqich o`z navbatida quyidagi texnologiyalardan iborat: Miqiyos (mashstab) texnologiyasi; shartli belgilar texnologiyasi; geografik koordinatalar texnologiyasi;

b) Kartografik dars texnologiyasi – mazkur darslarda to`la kartografik texnologiyalarniqullash asosida o`tilishi mumkin. Mazkur texnologiyalarni o`rta va oliy ta`limda regional tabiiy va iqtisodiy geografiya predmetlarini o`rganishda qo`llanishi mumkin. (materiklar va okeanlar, o`lkalar, davlatlar ma`muriy birliklarning tabiiy va iqtisodiy hamda siyosiy geografik sharoiti).

O'quv ishlari usullarini shakllantirish texnologiyasi

(Dushina, Gerasimova, Neklyukova, G'ulomov, Qurboniyozov, Vaxobov va boshqalar). Mazkur usul ham geografik ta'limda ilgaritdan qo'llanib kelinadi. Ushbu texnologiya geografik borliqni, xodisa va jarayonlarni tavsiflash tartibi, qoidasi, algoritmlar sifatida ifodalangan. Mazkur texnologiya har bir darslik uchun metodik qo'llanma sifatida kengroq tarqalgan. Masalan, har bir sinf bo'yicha nashr qilingan darsliklar albatta metodik qo'llanmasi bilan birga nashr qilinmoqda. Unda geografik ko'nikmalarni shakllantirish texnologiyalari ishlab chiqilgan.

Tabaqalashtirilgan o'qitish texnologiyasi (episheva, Dushina). Ushbu texnologiya ham geografiya ta'limida ilgaritdan qo'llanib kelinadi. Ushbu usulni qo'llaganda sinf o'quvchilari qobiliyatiga va qiziquvchanligiga ko'ra ma'lum bir guruhlariga bo'linadi. Bunda o'quv maqsadlari tabaqalashtiriladi, har bir guruh uchun o'quv jarayonini ta'minlaydigan texnologiya ishlab chiqiladi. Mazkur texnologiyani regional geografiya fanlarini o'rganishda qo'llash yaxshi natija beradi. Masalan, evropadagi rivojlangan davlatlar iqtisodiy geografiyasini o'rganishda har bir guruh ma'lum bir davlatni o'rganishi mumkin.

O'quvchilarni o'quv faoliyatini shakllantirish texnologiyasi (Suxov, Rom, Dronov, Dushina va boshqalar). Bunda o'quv faoliyati o'quvchilarni faolligini oshirishni maxsus, alohida shakli sifatida ko'riladi. Ushbu texnologiyada o'quvchilar bilimlarni ma'lum bir o'quv topshiriqlarni bajarish orqali olishadi. Ushbu texnologiyani qo'llash quyidagi bosqichlardan iborat: ma'lum bir ma'lum bir mavzu yoki bo'lim bo'yicha topshiriqlar tizimi tuziladi (masalan, Shimoliy Amerika iqlimi; Xitoyning qishloq xo'jaligi; Yaponiya transporti va hokazolar); O'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini tashkil qilish loyihasini ishlab chiqish; mavzu bo'yicha o'quvchilar bilimini tekshirish uchun test topshiriqlarini tuzish; dars o'tish, o'quvchilar bilimini baholash. Mazkur texnologiyalarga o'quvchilar faoliyatini faollashtirish texnologiyasini ham kiritish bo'ladi. O'quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish geografik o'yinlar texnologiyasi, muammoli o'qitish texnologiyasi, o'quv materiallarini chizmalari, belgilar va kartografik modellardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Geografiya o'yinlar

texnologiyasi, geografiya ta'limida juda keng qo'llaniladi va o'zining qiziqarliligi, bilimlarni o'quvchilar tomonidan oson o'zlashtirishlari bilan ajralib turadi. Geografik o'yinlar texnologiyasi barcha geografiya predmetlarini o'rganishda qo'llanimshi mumkun. Muammoli o'qitish texnologiyasi ham geografiya ta'limida yangi emas. U ilgari qo'llanilib kelinadi. Bunda asosiy vazifa bo'lib ma'lum bir mavzu bo'yicha muammoli savollar yoki topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va uni o'quvchilarga tushuntirishdir. Masalan rel'efni shakllanishi va rivojlanishi; atmosfera yog'inlarini hosil bo'lishi: qishloq xo'jaligini tabiat zonalari bo'yicha ixtisoslashuvi, sanoat tarmoqlarining joylashuvi va hokazolar.

Modul texnologiyasi geografiya ta'limida endi rivojlanib kelmokda. Darslik, bo'lim, mavzu ayrim modullarga bo'linadi. Har bir modulda o'quvchilar albatta egallashi lozim bo'lgan bilimlar tizimi aniqlanadi. Masalan, geografik koordinatalar mavzusini quyidagi modullarga bo'lishimiz mumkin: ekvator, bosh meridian, parallellar, meridianlar, daraja to'ri, geografik kenglik, geografik uzunlik, geografik koordinatalar. Bunda o'quvchilar albatta bilishi shart bo'lgan bilimlarga parallel, meridian, kenglik, uzunlik, geografik koordinata kiradi. Mazkur texnologiyani geografiya predmetlarining barchasida qo'llash mumkin. Mazkur texnologiya o'qituvchi va o'quvchini birgalikdagi faoliyatini engillashtiradi va jadallashtiradi.

Alternativ texnologiyalarni juda ko'p variantlari mavjud, ulardan geografiya ta'limda ustaxona texnologiyasidan foydalanish mumkin (Kollen, Okunev). Bunda usta (o'qituvchi) kerakli ma'lumotlarni o'quvchilarga beradi va uning asosida o'quvchilar o'zlarining bilimlariga tayangan holda topshiriqni bajarishadi. Masalan, o'qituvchi bergan quyidagi materiallar asosida (yillik o'rtacha harorat, yildagi eng baland va eng past haroratlar, yog'in miqdori va uning qaysi faslda yog'ishi, shamollar, havo massalari) iqlim turi, yillik havo harorati farqi, iqlim mintaqasi va u tarqalgan hududlarni aniqlashlari lozim.

Integratsiya texnologiyalari. Geografiya ta'limida integrativ predmetlarini o'rganishda qo'llaniladi. Geografiya ta'limida akademik litsey va kasb-xunar kollejlari o'tiladigan «Amaliy geografiya» predmeti integrativ predmet

hisoblanadi. Unda tabiiy geografik, ekologik, iqtisodiy geografiya, siyosiy geografiya va geosiyosiy bilimlar majmuasi berilgan. Bunda geografik qobiqdagi tabiiy, ijtimoiy- iqtisodiy, ekologik va geosiyosiy tizimlar haqida yaxlit bilimlar berilgan. Shuning uchun mazkur kursning vazifasi geografik borliqni yaxlit tushunish va qabul qilishni shakllantirishdir.

Kommunikativ — suhbat texnologiyasi ham geografiya ta'limida u yoki bu darajada ilgaritdan foydalanib kelinadi. Bunda o'qituvchidan o'quv jarayonida ijodiy yondashish, suhbat texnologiyasi usullaridan foydalana bilish, suhbat uchun savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, o'quvchilar yoki talabalar o'rtasida munozaralarni tashkil qila bilish talab qilinadi. Geografiya predmetlarini deyarli barchasini o'rganishda ushbu usuldan foydalanish mumkin. Masalan, «Orol dengizini qutqarib qolish mumkinmi», «Qozog'iston past tog'lari o'rnida Himolay tog'lari bo'lsa, O'rta Osiyo iqlimi qanday bo'ladi», «Qanday tuproqlar hosildor va nima uchun», «Shimoliy Atlantika iliq oqimi bo'lmasa evropa iqlimi qanday bo'ladi» va hokazolar.

Bundan tashqari reyting, jamoa, rivojlantiruvchi, shaxsga yo'naltirilgan, mualliflik, didaktik maqsadlarni yiriklashtirish, mantiqiy tayanch konspektlar va boshqa texnologiyalar mavjud.

Ta'lim texnologiyalarining ko'p qismi geografiya ta'limida ilgaritdan o'qitish metodikasi sifatida qo'llanib kelingan. Metodika bilan texnologiya bir-biriga juda yaqin, bir-birini to'ldiradi. Masalan, jahon siyosiy xaritasini ma'ruza usulida o'rganish texnologiyasi, Quyosh tizimi mavzusini tushuntirish usulida o'rgatish texnologiyasi va hokazolar.

Demak, geografiya fani yangi ta'lim texnologiyalarini qo'llash uchun juda katta imkoniyatlarga ega, ammo mazkur texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ilmiy-metodik ishlar boshqa fanlarga qaraganda sust olib borilmoqda.

Xulosa

O`zbekistonda geografiyasi ta`limida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo`llash va geografik texnologiyalarni ishlab chiqish bo`yicha ilmiy va metodik ishlar endi boshlanmoqda, ammo bu sohada yirik ko`zga ko`rinadigan ishlar hali qilinganicha yo`q. Pedagogik texnologiyalarni ajralmas qismi bo`lgan test topshiriqlari hamma fanlarda, ayniqsa Oliy o`quv yurtlariga kirish imtihonlarida keng qo`llanila boshlandi. Shuni ham aytib o`tish lozimki, barcha o`quv fanlarida

ham test topshiriqlarini tuzish bo'yicha aniq bir metodik qo'llanmalar va ko'rsatmalar ishlanmasdan turib test topshiriqlari ishlab chiqildi va nashr qilindi. Bu esa ayrim chalkashliklarga va testlarni faqat bir yo'nalishda tuzilishiga olib keldi. Testologiya, ya'ni o'qitish maqsadlarini test topshiriqlari orqali ifodalash pedagogik texnologiyalarni oxirgi bosqichlaridan biri hisoblanadi. Demak, O'zbekistonda va boshqa MDH davlatlarida yangi pedagogik texnologiyalarni ma'lum bir bo'g'inlarini qo'llashgancha oldin boshlangan.

O'zbekistonda 1992 yildan boshlab mamlakatimiz Prizedenti I.A.Karimov farmoniga binoan Oliy o'quv yurtlariga qabul pedagogik test sinovlari asosida o'tkaziladigan bo'ldi. Oliy va o'rta maxsus maktab muammolari institutida pedagogik texnologiyalar va ta'lim sifati bo'limi ochildi.

Geografiya ta'limida ko'pincha o'qitish texnologiyalari ilgaritdan qo'llanilib kelinadi, ayrimlari endi qo'llanilmoqda. I.V.Dushina (2004) geografiya ta'limida qo'llaniladigan texnologiyalarni quyidagi turlarga bo'lgan: mantiqiy tayanch konspektlar texnologiyasi; o'kuv ishlari usullarini shakllantirish texnologiyasi; o'kuvchilarni o'quv faoliyatini shakllantirish texnologiyasi; kommunikativ – aloqa texnologiyasi; o'quvchilarni loyixalar tuzish faoliyati texnologiyasi.

A D A B I Y o T L A R R O ' Y X A T I

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi.Toshkent. Sharq,1999
2. Karimov I.A.Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9 sessiyasida so'zlagan nutqi.1997 yil 29 avgust.Barkamol avlod- Uzbekiston taraqqiyotining poydevori.Toshkent,O'zbekiston.1997.
- 3.Bespal'ko V.P. Slagaemoe pedagogicheskoy texnologii.Moskva.Prosveteniye.1991
4. Darinskiy A.V. Metodika prepodavnie geografii.Moskva, Prosvshenie 1991

- 5.Yo`ldoshev. J; Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent.O`qituvchi, 2004
- 6.Selevko G.K. Sovremennyye texnologii. Moskva, Narodnoe obrazovanie. 1998.
- 7.Umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standart iva o`quv dasturi. 3-maxsus son. Toshkent,Sharq.1999
- 8.Qurbonniyozov R. Geografiya o`qitish metodikasi «Urganch» 2001.
- 9.Крылова О.В. Didakticheskie materialy po geografii. Moskva. Prosveshchenie,1996.
- 10.Ispol`zovanie sredstv obuchenie v prepodavanii geografii./ Pod red.Yu.G. Baryshevoy. M. Prosveshenie.1989
11. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta`lim samaradorligini oshirish yo`llari.muallif:Ishmuxamedov R.J. Toshkent.2004.
- 12.Ponurova G.A.Problemnyy podxod v obuchenie geografii v sredney shkole.M.Prosveshenie, 1991